



*Farangiz Do'stqobilova*

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti 4-kurs talabasi*

*Turopova Mohidil Turdiyevna*

*Ilmiy rahbar: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)*

## TO'YLARDAGI QADRIYATLAR

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda Surxondaryo viloyatida istiqomat qiladigan ba'zi urug'larning yashash tarzida to'y va an'analarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Voha aholisi bitta hududda joylashganligiga qaramasdan to'ylaridagi urchodatlar bir biridan farq qiladi.

**Kalit so'zlar:** Urug'lar,to'y,kelin salom,ko'pkari,kurash,kampir o'ldi,yuz ochar,kim chiroyli,poyondoz.

Bizga ma'lumki qadimdan o'zbek xalqi o'zining to'ylari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi.Surxondaryo hududida turli xalqlar azaldan bir biri bilan qardosh bo'lib yashab keladi. Vohamizda aholi tarkibida o'zbeklar,tojiklar to'y va marakalarida birlashib harakat qilishga o'r ganib qolishgan.

Vohada yashovchi qatag'onlar, qo'ng'irotlar, darbandilar, sayrobilar, machayilar,qayroq xalqi va boshqa insonlar turmush tarzi bir biriga juda o'xshash. To'ylar ham bir nechta turlarga bo'linadi.Bular nikoh to'ylari,sunnat to'ylar,yubiley to'ylari,aqiba to'ylari. Nikoh to'ylari deb ikki insonning hayot yo'lini birlashtirish asosida bir oila qurishga aytildi.

Nikoh to'ylari boshlanishi sovchilik asosida bo'ladi. Sovchilikdan keyin yoshlar ushrashib gaplashib ko'rishadi. Fikrlari fikrlariga ma'qul kelsa oila a'zolariga bildirishadi.Ba'zi holatlarda qiz tomonidan yangalar ham ko'rishuvga chiqishadi.

Shundan so'ng kattalar tomonidan non ushatilib yigit va qiz unashtiriladi. Unashtiruv jarayonida ishtirok etgan hammaga ulush sifatida ro'molcha tarqatishadi.Biroz vaqtidan so'ng kattalar tomonidan to'y olish marosimi o'tqaziladi.To'y olish marosimida kuyov tomonidan qatlamalar va qatpatirlar tayyorlanadi. Bundan tashqari kuyov tomonidan kelunga bir qancha sarpolar ham olib kelinadi.Bu an'anani xalqimiz 9 tovoq ham deb ataydi. Keyin uy boshliqlari tomonidan to'y sanasi belgilanadi.To'nda qiz onasi tomonidan ko'rpachalar tikiladi.Ba'zi hududlarda ko'rpachalar soni 20 dan oshsa ba'zi hududlarda 8 taga yetadi.To'y kuni kelin tomonidan mehmonlarni kutish boshlanadi.

Ma'lumki to'y dinimizda ham alohida ahamiyatga ega.Shu sababli to'y boshlanishi mahalladagi ulug' yoshli insonlar bilan bog'liq bo'ladi.To'yda kelin olish uchun kelgan kuyov navkarlariga belbog' tarqatish urchga kirgan.Kuyov esa uyga kirar ekan o'zi bilan poyabzalini olib kirishga ham harakat qiladi.Sababi nikoh to'yida yosh bolalar tomonidan bo'lajak kuyovning oyoq kiyimi yashirib qo'yiladi.Agar yashirgan insonga pul berilmasa yoshlar kuyovning oyoq kiyimini topib berishmaydi.Kuyovga atab kelinning otasi nimadir sovg'a sifatida berishi ham urchodatlarimizdan biridir.Shundan so'nggina kuyov navkarları bilan ko'rpachaga o'tiradi.To'ylarda bundan tashqari yana bir qancha urchodatlarimiz mavjud.

Poyondoz – bo'lajak kuyov kelinning uyiga ilk qadam qo'yanida kutib olish uchun oyoqlari ostiga mato yoki gilam tashlab kutib olishdir.Xuddi shu an'ana kelinning ham biringchi qadamida poyondoz tashlash bilan davom ettiriladi.

Kim chiroyli-bu odatimiz ko'p holatlarda qizning uyida yoshi katta insonlar tomonidan amalga oshiriladi.Kelin va kuyovga birgalikda oyna ko'rsatilib baralla kim chiroyli degan ovozlar boshlanadi.



Kampir o'ldi-bu odatimiz kuyovning uyida bajariladi.Kuyovning uyi eshigida yoshi katta bo'lган momolardan biri yotib oladi.Momoni turg'izish kuyovning va kelinning vazifasidir.

Yuz ochar-kelinning yuzini yosh bola tomonidan tayoqcha bilan ochilishi.Kuyovni uyida bajariladi.Kuyovning yaqin qarindoshlari bolasidan foydalaniladi.

Kelin salom-kelinning yangi xonadon vakillari bilan tanishish marosimi.Kelin salomni yangalar jonli ijro etadi.O'zbek to'ylarida shunga o'xshash yana bir qancha yozilmagan lekin odat tusiga kirgan an'analarimiz mavjud.

Sunnat to'ylarida xalqqa kurash,ko'pkari beriladi.Kurashda vohadagi istagan inson qatnashishi mumkin.Taklifnomha berilmasa ham ko'pkari va kurashda hamma o'zini sinab ko'rib qatnashadi.To'ylardagi yo'qolib borayotgan odatlarimizmi saqlab qolish bizning asosiy vazifamizdir.Zero kelajak farzandlari ba'zi urf - odatlarimizni asl mohiyatini anglab yetib oila qurish masalasiiga,oilaning muhimligiga diqqatini qaratsin.

#### **ADABIYOTLAR:**

- 1.Surxondaryo - etnografik makon.S.N .Tursunov, T.Pardayev Termiz -2012
- 2.Surxondaryo nomoddiy madaniyati
- 3.Surxondaryo viloyati toponimlari